



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

AHLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA
IJTIMOIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Bazarova Irodaxon

*Kokand universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası, PhD
email: bazarovairoda8379@gmail.com*

Mahammadjonov.S.Sh.

*Kokand universiteti Andijon filiali
Davolash ishi yo'nalishi 1-bochqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ahloqiy madaniyat tushunchasining mohiyati, tuzilmaviy tarkibi va ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Ahloqiy madaniyat shaxsning ahloq normalari va qadriyatlarini ongli ravishda anglab, ularni hayot faoliyatida amalga oshirish darajasini ifodalaydi. Muallif tomonidan ahloqiy madaniyatning asosiy komponentlari-ahloqiy ong, ahloqiy xulq va ahloqiy qadriyatlar tizimi tahlil qilingan holda, uning jamiyatdagi tartibga soluvchi, tarbiyaviy va integrativ funksiyalari yoritib berilgan. Shu bilan birga, ahloqiy madaniyatni rivojlantirishda oila, ta'lim muassasalari, milliy an'analar va ommaviy axborot vositalarining o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ahloqiy madaniyatning yuksak darajasi jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda, insonlar o'rtasida adolat, mehr shavqat, va hamjihatlik muhitini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: ahloq, madaniyat, ma'naviyat, ahloqiy ong, ahloqiy xulq, qadriyat, tarbiya, jamiyat.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the essence, structural composition, and socio-educational significance of the concept of moral culture. Moral culture reflects the level at which an individual consciously understands moral norms and values and applies them in everyday life. The author examines the main components of moral culture — moral consciousness, moral behavior, and the system of moral values — highlighting its regulatory, educational, and integrative functions within society. In addition, the article substantiates the crucial role of the family, educational institutions, national traditions, and mass media in the development of moral culture. According to the research findings, a high level of moral culture serves as an essential factor in ensuring the spiritual stability of society and in fostering an environment of justice, compassion, and solidarity among people.

Keywords: morality, culture, spirituality, moral consciousness, moral behavior, values, education, society.

Zamonaviy jamiyatda insonning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy faoliyati va madaniy rivoji ko'p jihatdan uning ahloqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Ahloqiy madaniyat —





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bu nafaqat shaxsning ahloqiy bilim va qadriyatlarni egallashi, balki ularni amaliy hayotda qo'llay bilish qobiliyatidir. Mazkur tushuncha inson tafakkuri, xulqi va ijtimoiy munosabatlarining bir butun tizimini ifodalaydi. Shu bois ahloqiy madaniyat falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya hamda madaniyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida o'rganiladigan ko'p qirrali ilmiy kategoriyadir.

Ahloqiy madaniyat insoniyat taraqqiyoti tarixida muhim g'oyaviy qadriyat sifatida shakllanib kelgan. Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy kabi allomalar o'z asarlarida ahloq, odob, fazilat va komillik masalalarini inson kamolotining asosi sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, ahloqiy madaniyat jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi ichki kuch, inson qalbini poklaydigan va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydigan manbadir.

Ilmiy adabiyotlarda ahloqiy madaniyat turlicha izohlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar uni "ahloqiy ongning amaliy ifodasi" sifatida talqin etsa, boshqalari "shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy muvozanatni ta'minlovchi tizim" deb izohlaydi. Har ikkala yondashuvni umumlishtirib aytganda, ahloqiy madaniyat — bu insonning ma'naviy ong darajasi, xulq-atvori va ijtimoiy qadriyatlar tizimi orqali jamiyat hayotida o'z o'rnini topish jarayonidir[1].


Bugungi globallashuv sharoitida ahloqiy madaniyat masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Texnologik taraqqiyot, ommaviy axborot vositalarining kengayishi, madaniyatlararo aloqalarning ortishi inson ahloqiy qadriyatlariga yangi sinovlar qo'ymoqda. Shu sababli, ahloqiy madaniyatni rivojlantirish, uni yosh avlod ongiga singdirish va ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy qismiga aylantirish — zamonaviy pedagogika va sotsiologiyaeng eng muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy asosini falsafiy-ahloqiy nazariyalar, xususan, Forobiy va Kantning ahloqiy amaliy aql haqidagi qarashlari, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar yondashuvlar tashkil etadi. Ular asosida ahloqiy madaniyatning mohiyati, uning jamiyat barqarorligi va inson kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi.

Ahloqiy madaniyat — bu insonning ma'naviy kamoloti, ahloqiy ong, xulq-atvor va qadriyatlar tizimining uyg'un birligidir. U jamiyat hayotida muhim ijtimoiy-me'yoriy tizim sifatida faoliyat yuritadi. Ahloqiy madaniyatning asosiy maqsadi — insonni komillikka, jamiyatni esa ma'naviy barqarorlikka eltishdir[2].

Falsafiy nuqtayi nazardan ahloqiy madaniyat inson tafakkurining yuksak bosqichi bo'lib, u yaxshilik va yomonlik, burch va adolat kabi tushunchalarning anglanishida namoyon bo'ladi. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy va Navoiy o'z asarlarida ahloqiy tarbiyani inson baxtining asosi sifatida talqin etganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, inson ahloqiy fazilatlar orqali o'zini va jamiyatni kamolot sari olib boradi.

Ahloqiy madaniyat jamiyat ahloqiy ongi va dunyoqarashining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. U "soxta, sun'iy yasama ahloq" hamda "tabiiy, mukammal, haqiqiy ahloq" o'rtasidagi tafovut orqali namoyon bo'ladi. Mazkur tushuncha inson faoliyati davomida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

insonparvarlik, demokratiya, mehnatsevarlik, ijtimoiy tenglik, egoizm va altruizm, tinchliksevarlik kabi ahloqiy fazilat va tamoyillar asosida yo'lga qo'yilgan ma'naviy jarayonni ifoda etadi[3].

Jamiyatning ahloqiy madaniyati esa har bir individda o'ziga xos tarzda, konkret shaxsiy fazilatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. U ahloqiy madaniyatlar majmui sifatida ahloqiy ong, madaniy dunyoqarash hamda ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Shuningdek, bu jarayon insonning o'zini o'zi boshqarish, muloqot madaniyati va faoliyatini izchil tarzda aks ettiradi.

Ahloqiy madaniyat inson shaxsiga bir qator muhim ko'nikma va qadriyatlarni o'rgatadi:

- o'zgalarga nisbatan munosabatda an'anaviy ahloqiy qonun-qoidalaridan ijobiy foydalanishni;
- bu qadriyatlarga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashishni;
- egallangan ahloqiy bilimlarni hayotda samarali qo'llashni.

Ahloqiy madaniyatning tuzilmasi uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: ahloqiy ong, ahloqiy xulq va ahloqiy qadriyatlar tizimi. Ahloqiy ong insonning ma'naviy bilim va e'tiqodini anglatadi, ahloqiy xulq uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar esa shaxsning hayotdagi yo'l-yo'rig'ini belgilaydigan mezonlardir[4].

Jamiyat taraqqiyotida ahloqiy madaniyatning ahamiyati beqiyosdir. U insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, totuvlik, adolat, hamjihatlik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptiradi. Shu jihatdan, ahloqiy madaniyat quyidagi funksiyalarni bajaradi: tartibga soluvchi, tarbiyaviy, ba integrativ funksiyadir[5].

Ahloqiy madaniyatning shakllanishida bir qator ijtimoiy institutlarning o'rni beqiyosdir. Oila insonda dastlabki ahloqiy odatlarni shakllantirsa, ta'lim tizimi uni nazariy va amaliy asosda rivojlantiradi. Milliy va diniy an'analar esa ma'naviy poydevorni mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari va internet esa ahloqiy qadriyatlarni keng jamoatchilikka etkazishda zamonaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, ahloqiy madaniyat insonning ichki dunyosini boyitadi, jamiyatda ma'naviy muvozanatni ta'minlaydi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Xulosa

Ahloqiy madaniyat jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini ifodalovchi, insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. U shaxsning ichki dunyosini, uning e'tiqodi, qadriyatlari va xulq-atvorini uyg'unlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-psixologik tizimdir. Ahloqiy madaniyatning yuksalishi nafaqat shaxsiy kamolot, balki butun jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ahloqiy madaniyat quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi: ahloqiy ong, ahloqiy his-tuyg'u, ahloqiy e'tiqod, ahloqiy xulq, ahloqiy qadriyatlar tizimi hamda ahloqiy munosabatlar. Ushbu tarkibiy qismlar bir-





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson faoliyatining ma‘naviy-ahloqiy asosini belgilaydi.

Ahloqiy madaniyat shaxsni o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishga, adolat, vijdon, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik va bag‘rikenglik kabi fazilatlarni hayotga tatbiq etishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, u jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarni barqarorlashtiruvchi, insonlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ahloqiy madaniyatning shakllanishida oila, ta‘lim tizimi, milliy va diniy an‘analar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yosh avlodni ahloqiy madaniyat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning poydevori sifatida ko‘rilishi zarur. Chunki yuqori ahloqiy madaniyatga ega inson — ma‘naviy yetuk, ijtimoiy faol va mas‘uliyatli shaxsdir.

Demak, ahloqiy madaniyatning yuksaltirilishi — bu jamiyatning ma‘naviy barqarorligini, ijtimoiy adolatni, tinchlik va totuvlik muhitini ta‘minlovchi strategik omildir. Ahloqiy qadriyatlarni anglash, ularni kundalik hayotda tatbiq etish hamda yosh avlod ongiga singdirish orqali jamiyatning ma‘naviy immuniteti mustahkamlanadi.

Shu sababli, zamonaviy sharoitda ahloqiy madaniyatni rivojlantirish nafaqat ahloqshunoslikning, balki falsafa, pedagogika, sotsiologiya va psixologiya fanlarining ham dolzarb ilmiy vazifasiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘azzoliy A. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Al-Azhar nashriyoti, 1986.
2. Forobiy A. Fozil shahar ahlining qarashlari haqida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Ibn Sino A. Axloq risolasi. – Tehron: Hikmat nashriyoti, 1998.
4. Alimov B. Axloqshunoslik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti, 2008.

